

CHET TILINI O‘QITISHDA TIL KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

¹Muxamedjanova Sitorabegim, ²Beshimov To‘xtasin

¹Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, (PhD) dotsenti

²Turkiston Yangi Innovatsiyalar Universiteti magistri

E-mail: ¹sitoramukhamedjanova@gmail.com

²beshimov@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etilishi hamda, xorijiy til kompetensiyalar, innovatsion texnologiyalar va ularni amaliyotga samarali joriy etishning ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, kompetensiya, o‘qituvchi, kommunikativ kompetensiya, chet tili, kompetentlik, ta’lim-tarbiya, o‘quvchi.

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЯЗЫКОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

¹Мухамеджанова Ситорабегим, ²Бешимов Тухтасин

²Доцент Бухарского инженерно-технологического института

²Магистр Туркестанского университета новых инноваций

E-mail: ¹sitoramukhamedjanova@gmail.com

²beshimov@mail.ru

Аннотация: В статье рассказывается о внедрении в нашей стране новых государственных стандартов образования, основанных на компетентностном подходе, а также о значении иноязычных компетенций, инновационных технологий и их эффективной реализации.

Ключевые слова: педагогика, компетентность, учитель, коммуникативная компетентность, иностранный язык, компетентность, образование, студент.

FEATURES OF FORMATION OF LANGUAGE COMPETENCIES IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE

¹Mukhamedjanova Sitorabegim, ²Beshimov Tukhtasin

¹(PhD), Associate professor of Bukhara Engineering-Technological Institute

²Master student of Turkistan University of New Innovations

E-mail: ¹sitoramukhamedjanova@gmail.com

²beshimov@mail.ru

Abstract: The article examines about the introduction in our country of new state education standards based on a competency-based approach, as well as the importance of foreign language competencies, innovative technologies and their effective implementation.

Key words: pedagogy, competence, teacher, communicative competence, foreign language, competence, education, student.

K I R I S H

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat [3]. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo'lish degan xulosaga kelinadi.

“Kompetentlik” so'zining ma'nosi xabardorlik, obro', o'z sohasi bo'yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo'lish bilan belgilanadi.

Kompetentsiya - shaxsiy sifat bo'lib, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko'nikma va malaka hisoblanadi.

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi

yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo pedagogning o'zida yangicha bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim.

So'nggi yillarda pedagogika faniga, ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi, ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida "aktyor" emas, aksincha "rejissyor" bo'lishi kerakligini anglashi lozim. U o'z talaba-talabalarini fanga ijodkorlik nuqtai nazar bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi.

Bugungi kunda barkamol, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash hamda komil inson g'oyasi - milliy va umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy ezigulikka undaydigan olijanob g'oya sifatida ulug'langan. Mazkur g'oyani yosh avlod ongiga singdirishda o'qituvchi kadrlarning roli beqiyos. Bu esa ulardan avvalo mukammal kasb qobiliyatiga ega bo'lishni, bilimi, mahorati, ilmiy nazariy va amaliy salohiyatidan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Bugungi o'qituvchi o'z kasbining mohir ustasi sifatida, o'z burchiga sodiq, shaxsiy manfaatidan ko'ra xalq manfaatini ustun qo'yib, zimmasidagi vazifani bajaradigan kompetentli shaxs bo'lishi lozim. Bu borada o'qituvchilar o'z ustida tinmay ishlashlari, jismoniy, ruhiy va kasbiy jixatdan tayyorgarliklari yuqori darajada bo'lishiga erishishlari talab etiladi. Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlari – o'z kasbiga sodiqligi, e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishi uni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Chunki maktabda ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o'qituvchi, uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liqdir.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o'zlashtirib olgan

bo'lishi zarur. Predmet va uning nazariyasini chuqur bilish, uni qiziqarli qilib o'quvchilarga etkaza olish bolalarning shu predmetga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, o'qituvchining obro'sini oshiradi. O'quvchilar o'qituvchining o'z bilimlarini bolalarga etkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uning fidoyiligini ham qadrlashadi. O'qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalqimizning o'z tarixi, madaniyati, urf-odatini o'rganish, bilishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotgan davrda ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Inglizcha **“competence”** tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi “

Kompetentsiya- bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati.

Kompetensiyalar quyidagi tayanch va xususiy kompetensiyalarga bo'linadi:




1-rasm. Tayanch kompetensiyalar


O'qituvchi kompetentsiyalari - mazkur ustoz tomonidan fan bo'yicha tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni va barkamol shaxsni kamolatga yetkazishda tutgan o'rni bilan farqlanadi. Umumta'lim maktablari fan

o'qituvchilarning tayanch kompetentsiyasi ularda o'qituvchining xususiy kompetentsiyalarini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchilarning kompetentsiyalari ikki guruhga ajratiladi [5]: o'qituvchining tayanch kompetentsiyalari va o'qituvchining xususiy kompetentsiyalari.



2-rasm. O'qituvchining tayanch kompetensiyalari



O'qituvchining xususiy kompetensiyalari

O'zbekiston Respublikasida ta'limning barcha bosqichlarida chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning ko'p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdan iborat.

Chet tili kommunikativ kompetensiyasi – o'rganilayotgan chet tili bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash qobiliyatidir.



4-rasm. Kommunikativ kompetensiya guruhlari

Kommunikativ kompetensiya quyidagi guruhlariga ajratiladi: **Lingvistik kompetensiya** - til materiallari (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va

nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o‘qish va yozish) bo‘yicha ko‘nikmalarni egallashni nazarda tutadi.

Sotsiolingvistik kompetensiya - so‘zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o‘z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o‘zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlari, qadriyatlari, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarni bilish hamda tili o‘rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko‘zda tutadi.

Pragmatik kompetensiya - o‘rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda takroran so‘rash, uzr so‘rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Mazkur standartda diskurs kompetensiyasi pragmatik kompetensiya tarkibiga kiritildi. Mazkur kompetensiya og‘zaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi. Diskurs kompetensiyasi og‘zaki yoki yozma nutqdagi izchillikni ta‘minlashda lingvistik signallarni tushunish va interpretatsiya qilish ko‘nikmalarini nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 123-son qaroriga binoan [1], ta’lim mazmuni umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va Oliy ta’limning fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlariga kiritilgan mavzulardan iborat. O‘quv materiallari ta’limning barcha turlarida uzviylik, uzluksizlik va davriylikni ta‘minlaydi. Har bir ta’lim bosqichida mazkur standart mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quv dasturlari va darsliklar ishlab chiqishda foydalaniladi.

Bitiruvchilarning chet tillar bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malaka darajalariga qo‘yiladigan talablar ta’lim mazmuniga muvofiq ishlab chiqilgan, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim bo‘yicha uzviy bo‘lib, nutq ko‘nikma va malakalar “can do” mazmunida tasvirlangan hamda

kerakli joylarda grammatika, leksika, fonetika va orfografiya bilan to'ldirilgan. Xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida nutq ko'nikma va malakalar chet tillarni bilishning umumyevropa tizimiga o'zaro bog'liq holda olindi hamda ular sodda va tushunarli shaklda berildi. Bitiruvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malaka darajalariga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib, har bir darajani to'liq egallanganligini ta'minlash uchun ta'limning barcha bosqichida o'quv dasturlari va darsliklarni ishlab chiqishda tuzuvchilar tomonidan inobatga olinishi, O'zbekiston Respublikasida ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining davlat attestatsiyasi uchun baholash mezonlarini ishlab chiqishda nazarda tutilishi lozim.

Umumta'lim maktablarida xorijiy tillardan biriga o'rgatishning bosh maqsadi - o'quvchilarni ularni o'rab turgan atrof-muhitga va kommunikativ vaziyatlarga, o'quvchilarning gapirish ehtiyojlariga mos keladigan nutq mavzulari asosida muloqotga o'rgatishdir [1]. Har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo bo'ladi. Maqsad tushunchasi rejalashtirilgan natija, tasavvurdagi oqibat ma'nosini anglatadi. Ta'lim maqsadlari har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish va tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. Jamiyatning ijtimoiy buyurmasi, sharoiti, siyosati doim umumta'lim maktabining ishini, maqsadini belgilab beradi. Chet tillarni o'qitish maqsadlari, jamiyat taraqqiyotiga, rivojlanishga qarab o'zgarib turadi. O'rta maktablarda chet tillarni o'qitish maqsadlari mavjud bo'lib, ular chet tili o'qitish metodikasi kursini tuzatish, ishlab chiqarishga ta'sir qiladi. O'tgan asrning 40-50 yillarda maktablarda tinglab tushunishni o'rgatish maqsadi yetakchi edi, og'zaki nutq esa faqatgina shakllantirilardi. Hozir esa ular davr, jamiyat talabiga qarab o'zgaradi.

Chet tillarni o'qitish maqsadlari o'z xususiyatiga ega bo'lib, ular o'qitish mazmuni, vositasi, metodlari va printsiplarini aniqlaydi [3]. Chet tili o'qitishdan asosiy maqsad chet tilini amalda qo'llashdir. I.V.Raxmanov ustози L.V.Sherbaning fikrini rivojlantirib o'zining "O'rta maktablarda chet tili o'qitishning ba'zi bir masalalari" maqolasida chet tili o'qitishning asosiy maqsadini belgilaydi. Uning fikricha, chet tili o'qitishning maqsadlari umumta'lim, tarbiya berish va kommunikatsiya hosil qilish hamda hosil qilingan ko'nikma, malakalarni boshqa

maqsadlarda ishlatishdan iborat deydi. Bu kommunikatsiya hosil qilish, kommunikativ o'qitish maqsadlaridan ajralib turadi. Chet tilini o'qitish maqsadlaridan eng birinchisi amaliy maqsaddir. Boshqa fanlar metodikasida ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantruvchi maqsadlar bor, amaliy maqsad ya'ni kommunikatsiya faqat chet tillarga xos hodisadir.

A D A B I Y O T L A R T A H L I L I

Kommunikatsiya, kommunikativ yoki amaliy maqsad deganda o'quvchilarga o'zgalar fikrini og'zaki va yozma tushunib qabul qilish va o'z fikrini og'zaki va yozma bayon etishni o'rgatish tushuniladi.

Chet tillar o'qitish maqsadlari ustida 1947 yilda L.V.Sherba, 1950 yilda A.N.Monigetti, 1958 yilda I.V.Raxmanov, 1970 yilda V.S.Tsetlin, 1971 yilda O.I.Moskal'skaya o'z qo'llanma va maqolalarida atroflicha ma'lumotlar bergan. Keyingi davrda bu masala bilan I.L.Bim ham shug'ullandi. Uning fikricha, chet tili o'qitishning amaliy, tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadlarini amalga oshirishda har tomonlama yondashish kerak. Amaliy maqsad bevosita kitob orqali aloqa qilishga o'rgatishdir [2].

I.L.Bim nutq faoliyatlarini tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish bo'yicha so'nggi erishiladigan maqsadlarga har bir paragraf (lesson) dars turumlari bo'yicha alohida aniq erishiladigan maqsadlariga ajratadi, darsning alohida bo'limlariga hamda har bir harakat usulini tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv vazifalariga bo'ladi.

T A H L I L L A R V A N A T I J A L A R

Shunday qilib, chet tillarni o'qitish o'z oldiga amaliy yoki kommunikativ, umumta'lim, tarbiyalash va rivojlantiruvchi maqsadni qo'yadi [4].

✦ ***Kommunikativ (amaliy) maqsad*** - Bu maqsad orqali o'quvchilarda inglizcha til materiallari bo'yicha ko'nikma, malaka hosil qilinadi. O'quvchilar leksika, grammatikani, talaffuz materiallarini o'zlari mustaqil qo'llay olishlari kerak. Inglizcha og'zaki nutq, o'qish, yozuv malakalari hosil qilinadi.

✦ ***Umumta'lim berish maqsadi*** - Bu maqsad orqali o'quvchilar tafakkurini yanada o'stirish, ingliz tilidan ma'lumot berish, ingliz tilini yanada chuqurroq

anglab olish, ingliz tili haqidagi yangi bilimlar hamda tili o'rganilayotgan mamlakat xalqining tarixi, adabiyoti va madaniyati haqida tushuncha va ma'lumotlar olish hisobiga o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish tushuniladi. O'quvchilarning anglashi, fikrlashni rivojlantirish, dunyoqarashni kengaytirish, chet tili – ingliz tili hisobiga yoki ingliz tilida bo'ladi.

★ **Tarbiyaviy maqsad** - Bu maqsad ingliz tili darsida baynalminal, axloq va estetik tarbiya berish hamda mehnatga munosabatini tariyalashni ko'zda tutadi.

Albatta bular ingliz til materiali orqali, inglizcha nutq mavzusini, inglizcha matnlar mazmunini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

★ **Rivojlantiruvchi maqsad** - Bu maqsad o'quvchilarni shaxsan bilimga o'rganish, o'rgatish yo'l-yo'riqlarini belgilab beradi, shuningdek, til faktlarini tahlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosa chiqarish, tinglash, nutq harakat malakalarini rivojlantiradi. U tasavvur qilish, nutq vaziyati tuzish orqali o'rgatishni, nutqda mantiqiy bog'liqlik bo'lishni, mustaqil fikr qila olishni, so'zlar ma'nosini fahmlab ta'limni, lug'at, qo'llanmalar bilan mustaqil ishlashni rivojlantiradi.

Chet tilida nutqiy faoliyat yuritish o'quvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltiriladi, ya'ni, o'rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosini o'zlashtirishga erishiladi. Tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv jarayonida o'quvchi oldin egallagan ijtimoiy, madaniy, lisoniy, emotsional, tajribasini boyitadi. Ta'lim tizimidagi boshqa fanlardan chet tilining farqi bir paytning o'zida, uning ham ta'lim maqsadi, ham ta'lim vositasi ekanligida namoyon bo'ladi. Chet tilida nutqiy malakalar (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv)ni egallash ta'limdan ko'zlanadigan maqsad bo'lishi bilan birga, o'rganilayotgan til yangi va foydali axborot (informatsiya) olish, yetkazish vositasi maqomini ham oladi.

Kommunikativ kompetentsiya tilshunoslik kompetentsiyasini, shuningdek, ijtimoiy-lingvistik pragmatik kompetensiyaga kiruvchi faktlar to'plamini o'z ichiga oladi. Dell Haymes tilni o'rganayotgan kishi quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lishi kerakligini aytadi [6]. Uning fikricha, oddiy bola jumalarni nafaqat grammatik jihatdan, balki maqsadga muvofiq ravishda ham biladi. U qachon gaplashish

kerakligi, qachon bo'lmashligi va nima haqida gaplashish kerakligi, kim bilan, qachon, qayerda, qanday shaklda bo'lishi kerakligini biladi.

X U L O S A L A R

Xulosa qilib aytganda, bola nutq aktida ishtirok etish va boshqalar tomonidan bajarilishini baholash uchun nutq aktining repertuarini (inson ega bo'lgan va foydalana oladigan barcha ko'nikmalar va boshqalar) egallaydi.

Xomskiyning fikriga ko'ra, lisoniy kompetentsiyani qolgan kommunikativ kompetentsiyadan ajratib, alohida holda o'rganish mumkin, ammo Dell Haymes singari ijtimoiy-tilshunoslar til kompetentsiyasi tushunchasi real emas va tilshunoslikda jiddiy taraqqiyotga erishish mumkin emas deb hisoblashadi. Ulardan foydalanish usullari: birinchidan, ijtimoiy o'zaro ta'sir qilish aslida mahoratli mehnat bo'lib, u ko'p kuch talab qiladi. U tug'ma emas (tug'ma yoki genetik qobiliyatga ega).

Dell Haymes vakolati quyida keltirilgan oldingi xususiyatlarga bog'liqligini ta'kidlaydi [6]:

1. Biror narsa mumkinmi (va qay darajada);
2. Biror narsa ko'rinayaptimi (va qay darajada) (mavjud vositalarga nisbatan);
3. Biror narsaga (va qay darajada) muvofiqligi (yetarli, baxtli, u ishlatiladigan kontekstga bog'liq);
4. Biror narsa bajariladimi va qay darajada bajarilgan.

Bularning barchasi lingvistik kompetentsiya bo'lib, asosan kommunikativ kompetentsiyaning tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatadi. Dell Haymesning lingvistik kompetentsiya tushunchasini tanqid qilishi shundan iboratki, bu mavhumlik, uni amalda qo'llashga hech qanday aloqasi yo'q. Xuddi shu tanqid kommunikativ kompetentsiya tushunchasiga qarshi qaratilgan. Viddsonning fikriga ko'ra, agar til bilimi grammatik bilimlarning mavhumligi bo'lsa, kommunikativ kompetentsiya – esa ijtimoiy xulq-atvorning mavhumligi.

A D A B I Y O T L A R R O ' Y H A T I :

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

2. Bim I.L. Педагогический вуз: состояние и проблемы. – М.: 1996. 2-6 с.
3. Golish L. “Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: mazmun, loyihalash tirish va amalga oshirish”. Ekspress qo‘llanma, 2001-yil.
4. Jalolov J., Makhkamova G., Ashurov Sh. “English Language Teaching Methodology”. Tashkent, 2015.
5. Yuldasheva S.M. “Kasbiy ta’lim metodikasi”.-T.: Toshkent. 2016.
6. Dell Hymes. Foundations of Sociolinguistics: An Ethnographic Approach. Philadelphia: University of Pennsylvania. P, 1974.